

## “Scopus” ma'lumotlar bazasi bo'yicha eng yuqori “Xirsh” indeksiga ega yosh olimlar

5-mart kuni Innovatsion rivojlanish vazirligida “Scopus” ma'lumotlar bazasidagi 4 ta fan – matematika, geologiya, biologiya va kimyo yo'nalishlari bo'yicha eng yuqori Xirsh indeksiga ega yosh olimlarni mukofotlash marosimi o'tkazildi. Tadbirda Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi o'rinnbosari Dilorom Toshmuhamedova, Innovatsion rivojlanish vaziri Ibrohim Abdurahmonov, yosh olimlar, tadqiqotchilar, Yoshlar akademiyasi a'zolari, OTM prorektorlari ishtirok etdilar.



Davlatimiz rahbarining iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi topshiriqlarini bajarish maqsadida “Scopus” xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasining 2020 yil yakunlari bo'yicha matematika, biologiya, kimyo va geologiya fanlari bo'yicha bir nafardan eng yuqori Xirsh indeksiga erishgan 40 yoshgacha bo'lgan yosh olimlarni 100 mln. so'm miqdoridagi bir martalik pul mablag'lari bilan mukofotlash belgilangan bo'lib, mukofot bilan 6 nafar yosh tadqiqotchi taqdirlandi. Yosh olimlarni mukofotlash shaffoflik va oshkoraliq tamoyillari asosida tashkil etilishi maqsadida “Scopus” bazasi asoschisi bo'lgan Niderlandiyaning “Elsevier” axborot-tahlil kompaniyasi bilan hamkorlik o'rnatildi. Kelishuvga asosan kompaniya O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yosh olimlarning 2020 yil oxiri holatiga ko'ra Xirsh indeksi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etdi.



Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda institutimizning 3 nafar yosh olimi g'olib bo'ldi. Geologiya yo'nalishida Elyor Toshmatov (H-indeks - 6) va Shamshodbek Akmalov (H-indeks — 5) ularning ham har biriga 50 mln. so'mdan mukofot topshirildi, kimyo bo'yicha Obid Tursunov (H-indeks — 14) 100 mln. so'm mablag' bilan taqdirlandi. Mazkur mukofotlash endi an'anaga aylanadi va har yili mukofotlanadigan yo'nalishlar soni ko'payib boraveradi. Joriy yil natijalariga ko'ra, mana shu to'rtta yo'nalishga qo'shimcha tarzda yana fizika fani va ingliz tili sohasida tadqiqot olib borayotgan yosh olimlar mukofotlanadilar. Yildan yilga mukofotlanadiganlar soni ham oshib boraveradi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**